



O'ZBEK TILIDAGI AYRIM IBORALAR ETIMOLOGIYASI

Dehqonova D.

FarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820135>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-March 2024 yil

Ma'qullandi: 12- March 2024 yil

Nashr qilindi: 15- March 2024 yil

KEY WORDS

frazeologiya, etimologiya,
etimologik lug'at, fraza, arxaik va
tarixiy so'zlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada frazeologiya bo'limi va uning vazifalari haqida so'z boradi. Tilshunoslikda etimologiya tushunchasiga ta'rif va uning ahamiyati ham izohlab o'tilgan. Tarkibida arxaik, tarixiy so'zlar qatnashgan ayrim iboralar kelib chiqishi o'rganilib, misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Frazeologiya grekcha "phrasis – ibora, ifoda, logos – fan, tushuncha, ta'limot" degan ma'noni anglatib, tilshunoslikning frazeologik birliklarini o'rganuvchi bo'limidir. Tilshunoslikda *frazeologiya* atamasi ikki xil ma'noda qo'llanadi: 1) tildagi barcha frazeologik birliklar ma'nosida va 2) mana shu birliklarni o'rganuvchi soha ma'nosida¹. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topib, xuddi so'zlar kabi tilimizda tayyor holda bo'ladi. Aynan mana shu belgisi bilan frazeologizmlar so'z birikmasi va gapdan farq qiladi.

Nutqimizda oddiy so'z yoki so'z birikmasining o'rniga iboradan foydalanish orqali nutqimizni yanada ta'sirchan ifodalash imkoniga ega bo'lamiz. Bunda ibora (fazeologiya) tarkibidagi so'zlar o'z ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, "*U do'stining aytgan gaplaridan hayron bo'ldi*" va "*U do'stining aytgan gaplaridan og'zi ochilib qoldi*" gaplari bir-biridan farq qiladi. Ya'ni, birinchi gapda hech qanday til bo'yoqlarisiz holat tasvirlanayotgan bo'lsa, ikkinchi gapda keltirilgan "og'zi ochilib qolmoq" iborasi orqali ortiq darajada hayron qolish ma'nosi gapning ta'sirchanligini oshiryapti.

Biz nutqimizda ishlatayotgan so'z, iboralarni ma'nolarini bilishimiz va muayyan vaziyatga moslab ayta olishimiz mumkin, lekin har doim ham ularning kelib chiqishi, aslida ular dastlab qanday ma'no anglatganini bilmaymiz. Masalan, kamyob, kamdan-kam ma'nolarida qo'llaniladigan "anqoning urug'i" iborasini olaylik. Tarkibidagi "anqo" aslida nima? Nega aynan bu so'z olingan? Anqo – afsonaviy qush. Qadimgi Sharq xalqlari ertak-dostonlarida bosh qahramon qilib olingan. Anqo qushi insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan xususiyati borligi, patlari va qanotlari oltin, kumushdan deya ta'riflanadi. Qadimda xalq orasida u baxt qushi nomini ham olgan, ya'ni anqo – baxt, tole timsoli, kimga soyasi tushsa, o'sha inson baxtli bo'ladi degan qarashlar ham mavjud bo'lgan². Shu sababli kamyob, taqchil narsalarga nisbatan *anqoning urug'i* iborasi ishlatib kelinadi.

¹ A. Anorbekova, Sh. Mirzayeva "Hozirgi O'zbek adabiy tili" T., 2011

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Anqo>

Mana shunday tarkibida arxaik, tarixiy soʻzlar qatnashgan, tushunilishi qiyin boʻlgan ibora, frazalarni oʻrganishimizda bizga **etimologiya** sohasi yordam beradi.

Etimologiya (yunoncha “etymon” – haqiqat, “logos” – soʻz, taʼlimot) soʻz va morfemalarning kelib chiqishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi³. Etimologiya soʻzning tilda qanday paydo boʻlgani, dastlab qanday maʼno ifodalagan, keyinchalik shakli va maʼnosida qanday oʻzgarishlar boʻlganligini aniqlaydi. Masalan, *kiprik* soʻzi koʻz qovoqlari chetiga qator joylashgan tuklar maʼnosini anglatadi. Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi *kirpi* – *koʻp tikan* soʻziga kichraytirish maʼnosini ifodalovchi -k qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan, keyinchalik -rp harflarining oʻrni almashgan⁴. Shu kabi bugungi kunda ham bizga tanish soʻz va birikmalar etimologiyasini topish unchalik qiyin emas. Lekin bir necha ming yillar avval paydo boʻlgan baʼzi arxaik, tarixiy soʻzlarni etimologiyasini bilish nafaqat tilshunoslik tarixi, balki din va tarix bilimlariga ega boʻlishni ham talab qiladi.

Quyida tilshunoslar, xususan, professor Sh.Rahmatullayev tomonidan ishlab chiqilgan etimologik lugʻatlarga tayanib, ayrim frazalar kelib chiqishini tahlil qilib chiqamiz.

1. Mufassil ravishda, mayda-chuydasigacha, batafsil maʼnolarini beruvchi *miridan-sirigacha* iborasini olaylik. (*Ziyodillaga bu hunar yoqib tushgan, uni miridan-sirigacha egallab olish uchun butun kuchi, zehnini ishga solgan edi. H.Nazir “Oʻtlar tutashganda”*)⁵ *Miri* soʻzi arabcha xazinaga oid, qiymati besh tiyinga teng chaqa pul maʼnosini anglatadi, chaqa pul qiymati eng past boʻlgan metall tanga degani. *Sir* soʻzi esa arabcha maxfiy, oʻzgalardan yashirin tutilgan narsa; hali ochilmagan, aniqlanmagan, inson uchun nomaʼlum; biror sohaning oʻzigagina xos boʻlgan xususiyat degan maʼnolarni anglatadi⁶. Demak, *miri (chaqa)* soʻzi orqali eng mayda, kichik detalligacha, *sir* soʻzi orqali esa maxfiy belgi, narsani bilish, *miridan-sirigacha* iborasining oʻzi mayda-chuydasigacha, ipidan-ignasigacha maʼnosini bermoqda.

2. *Qani, suyunchini chiqaravering, Moʻminjon aka! Padarlaʼnat zolim Nikolay podsho yiqilibdi, asfalasofilinga ketibdi. (M. Muhammadjonov, “Turmush urinishlari”).* Gapdagi *asfalasofilin* oʻzi nima degani, qaysi tildan olingan? *Asfalasofilin* (arabcha) – tubanlarning tubani, eng yaramas. *Asfalasofilin boʻlmoq* yoki *asfalasofilinga ketmoq* chuqur jarlikka tushib ketmoq; halok boʻlmoq degan maʼnolarni anglatadi⁷. Diniy maʼlumotlarga koʻra, *asfalasofilin* doʻzaxning eng tagi, jahannam degani. Bundan kelib chiqadiki, ushbu ibora nihoyat darajada tubanlikka, doʻzaxga tushish maʼnosini ifodalaydi.

3. “*Almisoqdan qolgan*” iborasiga koʻp duch kelganmiz, uning juda qadim zamonlardan beri degan maʼno anglatishini ham bilamiz. Lekin *Almisoq* oʻzi nima ekanligini bilamizmi? Nega aynan “*almisoqdan qolgan*” deymiz? Bu ibora uzoq dinimiz tarixiga borib taqaladi. Alloh taolo dunyodagi birinchi inson – Odam alayhissalomni yaratgan, uning pushtidan barcha insonlarni ruhini chiqarganda ularga qarata: “Men sizlarning Robbingiz emasmanmi?” deya savol bergan. Shunda hammalari: “Ha, Sen bizning Robbimizsan. Biz Sening bandalarimiz”, - deb iqror boʻlib, iymon keltirganlar va moʻmin boʻlishgan. Alloh va insoniyat oʻrtasidagi bu ahdlashuv “*Al-Misoq*” deb ataladi. Mana shu maʼlumotlarga tayanib, *almisoqdan qolgan* iborasining ham kelib chiqish tarixini bilib oldik.

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>

⁴ Sh.Rahmatullayev Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. 1-jild. 2000.

⁵ <https://uz.wiktionary.org/wiki/miri>

⁶ <https://uz.wiktionary.org/wiki/sir>

⁷ “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 1-jild. Toshkent. 2023.

Demak, tilimizdagi soʻz va boshqa birliklarning etimologiyasini oʻrganish juda ham qiziq boʻlishi bilan bir qatorda, oʻrganuvchining turli sohalardagi, shuningdek, din, tarix boʻyicha bilimlarini oshirib, charxlashga ham koʻmak beradi. Frazologizmlar maʼnoni kuchli daraja bilan ifodalab, fikrimizni yanada taʼsirchan qilib koʻrsatadi. Agar ularni etimologik tarixidan boxabar ravishda mazmunli va oʻrinli qoʻllay bilsak, nutqimizning mantiqiylik va joʻyalilik sifatlariga putur yetkazmay, uning boyligini yana bir karra koʻrsatgan boʻlamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Anorbekova, Sh. Mirzayeva "Hozirgi O'zbek adabiy tili" T., 2011.
2. <https://uz.wiktionary.org>
3. <https://uz.wikipedia.org>
4. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1-jild. Toshkent. 2023.
5. Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining etimologik lug'ati". 1-jild. Toshkent. 2000.
6. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati".
7. Kaxarov, Q., & Mustafoeva, S. M. S. (2023). O 'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SEN/SIZ MUROJAAT SHAKLLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 105-105.
8. Kaxarov, Q., & Abdurazzakova, M. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA NOVERBAL MULOQOTNING AHAMIYATI. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 114-114.
9. Shuhrat o'g'li, K. Q., Shuhrat o'g'li, K. Q., & Xusanova, Z. (2023). O 'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA MOTAM BILAN BOG 'LIQ SHAXS, NARSA, PREDMET VA JOY NOMLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 65-65.

INNOVATIVE
ACADEMY